

KONIMEX TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHI

Tilegenova Eliza

Navoiy innovasiyalar universiteti

Tarix yo‘nalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Konimex tumanidagi qishloq xo‘jaligi, chorvachilikdagi sifat, undagi mahsuldorlik va samara, fermer xo‘jaliklari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, chorvachilikdagi, mahsuldorlik, fermer xo‘jalik*

O‘zbekiston qadimdan qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududi serquyosh iqlimi, unumdor yer resurslari va boy suv manbalari bilan ajralib turadi. Shu bois qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Avvalgi yillarda paxta yetishtirishga yo‘naltirilgan bir tomonlama tizim asta-sekin diversifikatsiya qilindi. Bugungi kunda g‘alla, sabzavot, meva-sabzavot, uzumchilik va chorvachilik tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilib, tomchilatib sug‘orish, issiqxonalar va intensiv bog‘lar barpo etilmoqda. Fermer va dehqon xo‘jaliklariga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar berilayotgani qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shu jumladan Konimex tumanida ham qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga kata e‘tibor qaratilgan. Tumanda chorvachilik asosiy soha hisoblanadi. Chorvachilik xo‘jaliklari Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 13-sonli buyrug‘i bilan naslchilik xo‘jaliklariga aylantirildi. Mustaqillik yillarida chorvachilik xo‘jaliklarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli har tomonlama yuksalib bordi. Jumladan, chorvachilik sohasini, xususan, yaylovlar holatini, o‘simliklar dunyosi, qo‘ylar zotini yaxshi bilgani va bu sohada uzoq yillar olib borgan izlanishlari uchun Po‘lat Sulaymonov 1991 yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy Akademigi etib saylandi. Konimex tumanidagi chorvachilik sohasi o‘z rivojining yangi pallasiga chiqib, naslchilik zavodlari 90-yillir oxiriga kelib, birin ketin shirkat xo‘jaligiga aylantira boshlandi. Shu tariqa, 1998 yili “Saribel”, “Konimex” naslchilik zavodi, 2002 yili “Abay” chorvachilik xo‘jaligi naslchilik shirkat xo‘jaligiga aylantirildi. Unga ko‘ra, shirkatlar paychilik asosida tashkil etildi, Ustovga muvofiq shirkatning umumiy mablag‘idan paychilarga kelishilgan foizi beriladigan bo‘lib, ish unumi yanyda ortdi. Xususan, “Qizilqum” shirkati 2003 yili 395 million so‘m foyda bilan chiqdi. Xo‘jalikning shirkat shakliga o‘tilishi natijasida o‘rtada tuzilgan shartnomaga muvofiq, cho‘ponga o‘rtacha 100 qo‘zining 30 foizini rag‘batlantirish shaklida beriladi. Masalan, otarda 700 bosh qo‘zi qoldirilgan bo‘lsa, shuning 30 foiziga cho‘pon egelik qiladi. Natijada cho‘ponning sof foydasi 210 bosh qo‘zidan iborat bo‘ladi.

“Konimex” naslchilik shirkat xo‘jaligi 48772 bosh qorako‘l qo‘ylari, 168 bosh ot, 113 bosh tuya bilan faoliyat ko‘rsatib, xo‘jalikda 2011 yilda 30 ming bosh ona qoydan 29200 ta qo‘zi olingan, ularning 20440 tasi o‘stirishga qoldirilgan.

“Abay” naslchilik shirkat xo‘jaligida esa 21 ta fermer xo‘jalik, 111 otarda 67 ming bosh qorako‘l qo‘ylari 370 ta ot, 240 ta tuya bilan faoliyatini rivojlantirdi. 220 gektar maydonni egallagan “Abay” naslchilik shirkat xo‘jaligi 2011 yili 150 tonna jun, 9000 dona qorako‘l, 500 tonna go’sht yetkazib bera boshladi. 2017 yilga kelib naslchilik shirkat xo‘jaliklari bir qator mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga bo‘linib qayta tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Yer munosabatlari takomillashtirilib, fermerlarga yer uchastkalari uzoq muddatli ijaraga berildi. Bu esa ularning yerga egalik hissini kuchaytirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi. Fermerlar paxta va g‘alla bilan bir qatorda meva-sabzavot, poliz ekinlari hamda chorvachilik bilan shug‘ullanmoqda. Konimex tumanida ham jonkuyar fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirib kelmoqda. Masalan, “Uchqun Narqulo‘g‘li” fermer xo‘jaligi 65 gektar ekin maydoniga ega. Shundan 13 gektariga paxtaning “Buxoro-6” navi ekiladi. Har gektardan 40 sentnerdan paxta olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan fermer o‘z maqsadiga erishishiga ishonchi komil. Avgust oyi paxta terimining hal qiluvchi oyi. Bugun tuman dehqonlari “oq oltin” maydonidan sifatli va mo‘l hosil olish uchun tinimsiz mehtat qilmoqda.

Tuman prokuraturasi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016 yil 29-iyundagi qaroriga asosan “2016 yilda Boshqoli don ekinlaridan bo‘shatilgan yerlarni sug‘orishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-2555-son qarori yuzasidan monitoring o‘tkazildi. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida tuman hokimining 2016-yil 2-iyuldagi K-404-son qarori bilan tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi, “Agrotexservis MTP” mas’uliyati cheklangan jamiyati, yer resurslari va davlat kadastr bo‘limlariga fermer xo‘jaliklarining zarur zaxira buyumlar buyurtmasi asosida shudgorlash agregatlarini ta‘mirlash, shudgorlash agregatlarini ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Qishloq xo‘jaligida fermer va dehqon xo‘jaliklari, klasterlar hamda agrofimlar faoliyati yoshlar bandligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar ekin ekish, hosilni parvarishlash, chorvachilik, issiqxona xo‘jaligi va mahsulotlarni qayta ishlash kabi ishlarda faol ishtirok etmoqda. Bu esa ularga nafaqat ish, balki amaliy tajriba va kasb-hunar o‘rganish imkonini ham beradi. Erta bahorda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Konimex tuman Kengashi hamda sector rahbarlari tashabbusi bilan tumanda ishlab chiqarish kooperativlari tashkil etilgan edi. Ishsiz yoshlarning bandligini ta‘minlash maqsadida “Yuksalish” MFY hududidan “ONLINE AGRO FERMA” kooperativiga 46 nafar yosh biriktirilib, ularga 20 sotixdan yer maydonlari ajratildi. “To‘qqiztepa” MFA dan “KONIMEX GARDEN FRUITS” ishlab chiqarish korxonasiga biriktirilgan 39 nafar 20 sotixdan yer maydonlari ajratilib foydalanishga topshirildi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi izchil rivojlanib, zamonaviy talablar asosida takomillashib bormoqda. Kelajakda ushbu soha nafaqat aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlash, balki eksport salohiyatini yanada oshirishda ham muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. Eshonqulov H. Qizilqum alplari.- T.: “Sharq”.

2. Serik Shuqun “Қўт дарыған Қызылқұм”. – Т.: “Абдулла Қадыри атындығы халық мұрасы” баспасы. 2004.
3. Konimex tumani kecha va bugun. J.Mustafojev, U.Narzullayev, L.Berdimuratova, Z.Safarov, Sahhof, 2021-yil
4. Кенимех таңы газеті. 1930 жыл